

**DON VA DUKKAKLI EKINLAR UNUVCHANLIGIGA
AGROTSENOZNING TA'SIRI****Mamirov Nurbek Voyitqul o'g'li***Agratexnika va o'simliklarni
ximoya qilish bo'lim boshlig'i*

Annatosiya. Mazkur maqolada don va dukkakli ekinlar agrotsenozining urug'ning unuvchanlikka ta'siri bo'yicha ma'lumotlar o'rin olgan. Tadqiqot obyekti sifatida tritikalening “Yarello” va Arpaning “Mahalliy” hamda dukkakli don ekinlaridan vikaning L-1 va ko'k no'xatning “Vostok-55” navlari va liniyasi olingan. Tadqiqot natijalari sho'rlangan tuproq sharoitida sof holda ekilgan dukkakli don ekinlarning unuvchanligi vikada -81,7% ko'k no'xatda- 53,1% tashkil etgan bo'lsa, agrotsenozda tegishli ravishda 95,2%; 83,7% teng bo'lgan. Sho'rlangan tuproq sharoitida dukkakli don ekinlar unuvchanligini oshirish uchun ularni donli ekinlar bilan birga qo'shib ekish tavsiya etilgan. Bunda dukkakli va donli ekinlarning nisbati 1:1 yoki 1.5:0.5 teng bo'lishi maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: agrotsenoz, unuvchanlik, tuproq sho'rlanishi

Kirish: Sho'rlangan tuproq sharoitida qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish va uning sifatini yaxshilash o'simlikshunoslikning dolzarb masalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu masalaning ijobiy echimlaridan biri sho'rlangan tuproq sharoitida mahsulot miqdori va uni sifatini yaxshilash imkoniyatiga ega o'simlik turlarini tanlash, ularni etishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bilan bog'liq. Bu o'rinda dukkakli don ekinlari muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, dukkakli don ekinlarning shunday turlari borki ular o'simliklar senosi uchun yaxshi obyekt hisoblanadi. Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, komplementar agrotsenozda o'simliklar uchun ijobiy muhit yaratiladi va bu o'z navbatida o'sish va rivojlanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha vika sof holda ekilganida uning unuvchanligi 77 - 83% ni tashkil etgan bo'lsa donli ekinlar birga qo'shib ekilganida(agrotsenozda) ushbu ko'rsatkich 93 - 96% ni tashkil etgan. Natijada kuzgi javdardan 175,1 s/ga (sof holda), vika bilan birga ekilganida 198,9 s/ga yashil massa olingan. Aynan shunday natijalar kuzgi bug'doyda ham qayd etilgan. Sof holda ekilgan kuzgi bug'doydan 165,1 s/ga vika bilan birga ekilganida 203 s/ga yashil massa olingan. Muhimi mahsulot tarkibidagi protein miqdori 16,9% (vikada), 6,3% (javadarda) tashkil etgan bo'lsa agrotsenozda 8,8% ni tashkil etgan [1- 4].

Donli va dukkakli don ekinlar agrotsenozida oqsil miqdori 24,4 g dan 35,8 g, karotin miqdori 28,8 mg dan 42,8 mg gacha bo'lganligi aniqlangan [2].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ijobiy agrotsenozni shakllantirish o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Bu o'z navbatida mahsulot miqdori va uning sifatini yaxshilash imkonini beradi. Lekin, sho'rlangan tuproq sharoitida ushbu masala to'liq o'z echimini topmagan. Mazkur tadqiqotni o'tkazishdan asosiy maqsad sho'rlangan tuproq sharoitida don va dukakkali ekinlar agrotsenozining urug'ning unuvchanligiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotlar Sirdaryo viloyati Boyovut tumani "Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Sirdaryo ilmiy-tajriba stansiyasi" ning dala tajriba maydonida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida boshqoli don ekinlaridan trikalening "Yarello" Arpaning "Mahalliy" va dukkakli ekinlardan vikaning L-2 liniyasi va ko'k no'xatning "Vostok-55" navlari olindi. Ushbu navlar to'rt qaytariqda ekildi. Ekish me'yori dukkakli don ekinlar uchun gektariga 2 mln. don tashkil etdi. Tajriba quyidagi variantlarda va kuchsiz sho'rlangan dala sharoitida olib borildi:

1-variant. Ushbu variantda don va dukkakli ekinlarning nisbati 1:0 teng bo'ldi. Bunday holatda gektariga 2 mln. dona tritikale sof holda ekildi;

2- variant 1,5:0,5 gektariga 1,5 mln.don tritikale /arpa 0,5 mln.don vika/ko'k no'xot;

3- variant 1:1 —gektariga 1 mln. don tritikale/arpa va 1mln. don vika/ko'k no'xot;

4-variant 0,5:1,5 gektariga 0,5 mln. don tritikale /arpa+ 1,5 mln.don vika/ko'k no'xot;

Sho'rlangan dala maydonida don va dukkakli don ekinlari agrotsenozida urug'ning unuvchanligini aniqlash natijalari bo'yicha ma'lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi ma'lumotlardan tritikalening "Yarello" navi sof xolda gektariga 2 mln. don ekilganida(1-variant) unuvchanlik 89,2% ni tashkil etdi. Ekish me'yori bo'yicha nisbatlar 1,5:0,5 (2-variant) teng bo'lganida ya'ni gektariga 1,5 mln. don tritikale va 0,5 mln. don vika ekilganida tritikalening unuvchanligi 95,2 % ni va vikaning 83,8 % ni tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlardan agrotsenozda tritikale va vikaning unuvchanligi sof holda ekilganiga nisbatan ortdi. Tajribaning 3 - variantida tritikale va vika 1:1 nisbatda ekilganida tritikalening unuvchanligi 92,8% vika-85,7% ni tashkil etdi. To'rtinchi variantda tritikalening miqdori kamaygan bo'lsa vikaning ulushi ortgan holatda unuvchanlik tritikaleda 87,3% ni va vikada 95,2% tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlardan siyrak ekilgan holatda tritikale va vikada unuvchanlik kamayishi qayd etildi. Demak sho'rlangan tuproq sharoitida vikani to'liq o'ndirib olish uchun tritikale bilan qo'shib ekish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun gektariga 1,5 mln.don vika va 0,5 mln.don tritikale qo'shib ekish mumkin.

1- jadval

Don va dukkakli ekinlar agrotsenozining unuvchanlikka ta'siri

№	Variantlar	1:0	1,5:0,5	1:1	0,5:1,5
1	Tritikale “Yarello” navi	89,2	95,2	92,8	87,3
	Vika (Liniya2)	81,7	83,8	85,7	95,2
2	Arpa “Mahalliy” navi	90,4	83,3	94,8	83,11
	Ko'k no'xat “Vostok-55” navi	53,12	79,16	83,7	57,5

Ko'k no'xatning “Vostok-55” va Arpaning “Mahalliy” navlari bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sof holda ekilgan arpaning unuvchanligi 90,4% tashkil etgan bo'lsa, ko'k no'xatda 53,12% ni tashkil etdi. Tajribaning ikkinchi variantida gektariga 1,5 mln. don arpa va 0,5 mln. don ko'k no'xat ekilganida arpaning unuvchanligi 83,3%, ko'k no'xatning 79,16% teng bo'ldi. Agrotsenozda arpaning unuvchanligi kamaygan bo'lsa ko'k no'xatda esa unuvchanlik ortganligi qayd etildi. Ekish nisbati 1:1 (3-variant) teng bo'lganida arpaning unuvchanligi 94,8% va ko'k no'xatning 83,7% ni tashkil etdi. Arpaning ekish me'yori gektariga 0,5 mln. don bo'lgan holatda unuvchanlik 83,11%, ko'k no'xatda 57,5% teng bo'ldi. Ushbu ma'lumotlardan arpa siyrak ekilganida uning unuvchanlik pasaygan bo'lsa ko'k no'xatda esa bunday holat kuzatilmadi. Yuqorida ma'lumotlardan ko'k no'xat sof holda ekilganida uning unuvchanligi past bo'lgan bo'lsa agrotsenozda esa buning teskarisi qayd etildi. Bu sho'rlangan tuproq sharoitida ko'k no'xatni arpa bilan 1:1 nisbatda birga ekish maqsadga muvofiq. Chunki bunday nisbatda arpa va ko'k no'xat uchun ijobiy senoz yaratiladi.

Umuman olganda olingan sho'rlangan tuproq sharoitida dukkakli don ekinlar unuvchanligini oshirishda ularni donli ekinlar, jumladan, tritikale va arpa bilan qo'shib ekish tavsiya etildi. Buning uchun tiritikalening vika bilan nisbati 0,5: 1,5 va ko'k no'xat bilan 1:1 teng bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Рахмонов И. А. // Суғориладиган ерлар ҳолатини яхшилашда биомелириотив ёндошувлар (Сирдарё вилояти мисолида)// Диссертация. Гулистон -2022й. – 120 б.
2. Мавлонов Б., Хамзаев А., Бобоқулов З. “Дуккакли дон экинларининг тупроқ унумдорлигини оширишдаги ахамияти”. Ўзб. к/х. журнари. 2018. № 8. –Б. 36.
3. Mourtzinis, S., Gaspar, A. P., Naeve, S. and Conley, S. P., 2017. Planting date, maturity, and temperature effects on soybean seed yield and composition. *Agronomy Journal*, Vol. 109, Iss. 5,
4. Ўринбоева Г. // “Кузги буғдойдан кейин экилган дуккакли зираотларни тупроқ унумдорлигига таъсири”. ЎзПИТИ Фар. Тўп. Фарғона 2008 йил. 138-бет.